

## MUSIQA DARSLARINI O'TISHDA YANGICHA YONDOSHUVLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI.

**Do'stmuhammedova Gulhayo.**  
Jizzax davlat pedagogika instituti  
"Musika ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi musika darslarini o'qitilishida ham fanlarning o'zaro aloqadorlik xususiyatlaridan maqsadli foydalanish ushbu fanning mazmunli va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, fanlararo integratsiyalashuv, aloqadorlik, umumta'lim maktablari, musika, musika san'ati, o'quvchilar, estetik, pedagogik yondashuv.

Jahon hamjamiyatidagi o'rnatilgan qat'iy karantin natijasida ta'lim muassasalari masofaviy ta'limga o'tkazildi. Buning natijasida esa ta'lim va oiliy ta'lim sohasida bir qancha o'zgarishlar va siljishlar bo'lgani jahon ekspertlari tomonida e'tirof etilmoqda. Pandemiya natijasida masofaviy ta'limga o'tib unda ishlash uchun yetarlicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'ldik hamda bu jarayondagi o'z kamchiliklarimizni ko'rish imkoniyatiga ham ega bo'ldik. Shu bilan bir qatorda masofaviy ta'limdagi kamchiliklarimiz yaqqol ko'zga tashlandi. Bu esa o'z navbatida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bugungi kunda biz pedagoglar oldiga katta vazifalar turganini anglatadi.

Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazishda musiqiy ta'lim tizimini zamonaviy talablarga javob beradigan metodikalar fanlararo mazmun bilan ta'minlashni taqozo etmoqda. Ma'lumki, umumiy o'rta adabiy ta'lim tizimida uzliksizlikni ta'minlash maqsadida boshlang'ich sinflarning o'qishi V-IX sinflarning adabiyot darslarida mazkur masala yechimini topish bilan belgilanadi va u quydagilarda o'z aksini topadi:

- 1) Ma'furaviy tizimdagi o'zgarishlarning adabiy ta'limga yangicha yondashishi, qarash munosabati, mezon talab, mazmun, shakl, atributlarni taqozo etishda;
- 2) Adabiy ta'limda milliylik bilan umuminsoniylikni uyg'unlashda
- 3) Adabiy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogic texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanishda;
- 4) Pedagogik tadqiqotlarda nazariy psixologiyaning keng qo'llanishida.

Adabiy ta'lim jarayonida uzluksizlikni ta'minlash orqali o'quvchilarning o'zligini anglash, vatanparvarlik, fidoyilik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik bilan bog'liq tuyg'ularni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo'lgan sofdillik, to'g'riso'zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslilik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Bu yo'nalish mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishida, jamiyat a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy hayotida uchraydigan muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Sub'ekt-sub'ekt" hamkorligi asosida adabiy ta'lim o'z ichiga o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish orqali ularda erkin fikrlash va mantiqiy mushohada qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalasini ham qamrab oladi.

Ma'lumki, o'quvchilar o'zini va o'zgalarni, atrofdagi narsa va hodisalarni til vositasida taniydi, bilib oladi. O'rtadagi bog'liqlikni ta'limning uzluksizligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Adabiy ta'limning uzluksizligini ta'minlash quydagi hollarda o'z samarasini beradi:

- adabiyotning umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq bilimlarini o'quvchilarning to'laqonli idrok etishga erishish orqali murakkab axborotlarni sintezlash;
- o'quvchilarning adabiy-estetik tafakkuri bilm va tushunchalari darajasini baholash;
- kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish:
- og'zaki va yozma nutqni o'stirish.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni o'stirish yuzasidan o'qish va adabiyot darslarining tarkibiy qismida hamda bog'lanishni nutqni o'stirishga doir mahsus darslarda muayyan reja asosida ish olib boriladi.

Hozirda adabiyot darslaridagi mavzularning o'zlashtirilishi o'quvchilar tafakkuri va nutqini o'stirishda muhim manba vazifasini o'taydi. Adabiy asarlar tahlili o'quvchilarni ma'lum maqsad asosida aniq va mintaqaviy jihatdan izchil fikrlashga o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, adabiyot darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish ularning adabiy-estetik tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bir butunlikni hosil qiladi. Bu jarayon quydagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi: Birinchi yo'nalish- o'quvchilarning adabiyotning o'z san'ati sifatidagi qonuniyatlariga doir so'z boyligini oshirish (o'quvchilarni ular uchun yangi bo'lgan adabiy kategoriyalar ma'nosi va qo'llanishi doirasini aniqlash hamda oydinlashtirishga o'rgatish). Ikkinchi yo'nalish- badiiy asarlarning janr hususiyatlarini aniqlash, adabiy asar syujeti va kompozitsion tuzulishi, g'oyaviy-badiiy va uslubiy hususiyatlari tizimini izchil o'rganish.

Uchunchi yo'nalish- o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malaka ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsda o'quvchilarning o'z fikrini mantiqiy izchillik bilan adabiy til miyorlariga rioya qilib bayon qila olishlari uchun zamin yaratilishi lozim. O'quvchilarning og'zaki nutqi kitob mutolaa qilish, teleko'rsatuv, musiqa va san'at kinofilmlar kabi omillarning ta'sirida shakllanadi. O'quvchilar nutqining adabiy til miyorlari asosida rivojlanishida oila maktab hamkorligi, hususan, musiqa adabiyot darslarini to'g'ri tashkil etish muhim o'rin tutadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili adabiyoti darslarini olib borishda, badiiy asarlarni ifodali o'qish mashg'ulotlarida, o'quvchilarning nutqi, eshitish qobiliyatlarini, so'zdagi tovushlarni farqlay olish, har bir gapning tugallangan chegarasini topa bilish, tovushni ko'tarish va pasaytirish, nutq suratini tezlashtirish va sekinlashtirish, ma'no tushgan so'zni ajrata olish malakalarini o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning tadqiqot olib borishdagi kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki musiqa darslarida asarlarni kuylashda, ifodali o'qish ko'nikmalarini o'stirishda nutqning

ohangdorligini kuzatishga imkon beradigan sintaktik matnlardan foydalanish ijobiy samara beradi. Bunday ko'nikmalar adabiyot mashg'ulotlaridagina emas, musiqa fanlaridan o'tkaziladigan darslarda ham izchil shakllantirilsa degan hulosaga kelish mumkin.

Sababi-musiqa va adabiyot darslarida mavzularning o'zaro ichki bog'lanishdan tashqari o'quv fanlararo bog'lanishning ham katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati bor. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda shu mavzu bilan uzviy bog'langan, uning mohiyatini anglashga yordam beradigan boshqa fanlarga doir materiallarni oldindan belgilab olishi maqsadga muvofiqdir.

Musiqa va adabiy ta'limni muvoffaqiyatli fanlararo integratsiyalashuvni amalga oshirishda dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda ularning mazmuni va shakli sharoitiga qarab belgilanadigan sinfdan tashqari ishlar ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni yozuvchilar, badiiy so'z ustalari va bastakorlar to'g'risidagi eshittirishlar, teleko'rsatuvlar, filmlar bilan tanishtirish ijodiy mayllarni-nimaga moyilliklarini aniqlash va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirishda alohida o'rin tutadi. To'garak mashg'ulotlarida: maqola, she'r, hikoya turli janrga mansub asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish o'z navbatida musiqa darslarida ham umumiy mavzular o'rtasidagi uzviylikni taminlashga hizmat qiladi.

Ma'lumki musiqa san'ati o'z tarbiyasiga ko'ra, odamlar hayotini, ularning voqeqlikka bo'lgan munosabatini va turlicha ichki kechinmalarni musiqiy tovushlar orqali, badiiy obrazlar vositasida yorqin tasvirlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish hususiyati bilan nafosat tarbiyasining muhim manbai hisoblanadi. Musiqa san'atining ta'siri bolalar va o'smirlarda qanchalik erta boshlansa, ko'zlangan maqsadga erishish shunchalik ososnoq bo'ladi.

Bu to'g'rida buyuk pedagog V.A.Suxamlinskiy shunday degan edi: "Bolalikdagi qo'ldan boy berilgan narsani balog'at yoshida o'zlashtirish ancha qiyinlashadi. Yosh bolaning yuragiga badiiy asarlar eng yaxshi vositalar orqali yetib borsa, agar u tovushlar bo'yoqlarining inson hissiyotiga ta'sirini sezsa, u shunday bir madaniy pog'onaga ko'tariladiki hech qanaqa boshqa ta'sirlari bilan

bunga erishib bo'lmaydi"<sup>1</sup>. Bizning yashayotgan hayotimizda musiqa san'ati bolalaligimizdan yonimizdan ketmaydi. Faqat qay tarzda qanday musiqalardan foydalanishimiz katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni yozuvchilar, badiiy so'z ustalari va bastakorlar to'g'risidagi eshittirishlar, telako'rsatuvlar, filmlar bilan tanishtirish ijodiy mayllarni-nimaga moyilliklarini aniqlash va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirishda alohida o'rin tutadi. To'garak mashg'ulotlarida: maqola, she'r, hikoya turli janrga mansub asrlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish o'z navbatida musiqa darslarida ham umumiy mavzular o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga hizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- [1] Davlat ta'lim standartlari.- T.: 2017-yil 6-aprel.
- [2]V.A.Suxomlenskiy. Tarbiya haqida (O'quv qo'llanma) Toshkent 1977-yil.
- [3]Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari(O'quv uslubiy qo'llanma) Toshkent 2020-yil.

---

<sup>1</sup> V.A.Suxomlenskiy. Tarbiya haqida (O'quv qo'llanma) Toshkent 1977-yil 116 bet.